FALSAFA

UDK: 17, 392.4(574.63) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a30**

O‘ZBEK MILLIY NIKOH MAROSIMLARINING TRANSFORMATSION XUSUSIYATLARI VA UNING MA’NAVIY QIYOFASI

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО БРАЧНОГО ОБРЯДА И ЕГО ДУХОВНОГО ОБРАЗА

TRANSFORMATION CHARACTERISTICS OF UZBEK NATIONAL MARRIAGE CEREMONIES AND ITS SPIRITUAL IMAGE

G‘afurov Doniyor Oripovich[1]

[1]G‘afurov Doniyor Oripovich – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda qadim-qadimdan oila va nikoh muqaddas Vatan sanalganligi takidlangan. O‘zbek nikoh marosimlaridagi o‘zgarishlarni amalga oshiradigan faktorlar zamonaviy turmush tarziga intilish va jamiyatdagi bo‘ladigan o‘zgarishlar, xususan, bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi ekanligi haqida bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что семья и брак издревле считались в нашей стране священной Родиной. Утверждается, что факторами, вносящими изменения в брачные обряды узбеков, являются стремление к современному образу жизни и изменениям в обществе, в частности, углублению рыночной экономики.

Abstract

In this article, it is emphasized that family and marriage have been considered a sacred Motherland in our country since ancient times. It is stated that the factors that make changes in Uzbek marriage ceremonies are the desire for a modern lifestyle and changes in society, in particular, the deepening of the market economy.

Kalit so‘zlar: *Oila, nikoh, ta’lim, fan, tarbiya, barqaror taraqqiyot, ma’naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *Семья, брак, образование, наука, воспитание, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words: *Family, marriage, education, science, upbringing, sustainable development, spiritual maturity.*

KIRISH

Yangi O‘zbekiston rivojlanishida rahbar xodimlar insonlar qalbiga yo‘l topishi, ma’naviy tahdidlardan asrashi O‘zbekistonimiz taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Mustaqillik yillarida jamiyatning yadrosi bo‘lgan oila va nikoh marosimlari bo‘yicha transformatsion holat aholini jismoniy sog‘lomlashtirish, jamiyatda ayollarga bo‘lgan munosabat o‘zgarishi va “sog‘lom ona va sog‘lom bola” tamoyili ishlab chiqilishi bilan izohlanadi. Bu tamoyil asosida qator yillar davlat dasturlari ona va bolani sog‘lomlashtirish, reproduktiv sog‘lomlik, tug‘riq yoshidagi ayollarga davlatning ko‘magi, sog‘lom avlod uchun ordenining ta’sis etilishi singari jiddiy islohotlar olib borildi. O‘zbekistonning birinchi Prezidentining tashabbusi bilan jamiyatning genofondini yangilash, nikohning axloqiy mohiyati va estetik evolyusiyasini rag‘batlantirish singari chora-tadbirlarning qo‘llanishi sog‘lom nikoh–sog‘lom oila–sog‘lom bola singari estetik transformatsion jarayonni yuzaga keltirdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘zbek nikoh marosimlarining transformatsiyaga uchrashida o‘zbek mentalitetidagi va ijtimoiy ongdagi immanent belgilaridagi o‘zgarishlar asosiy rolni bajaradi. Bular quyidagilardir:

- o‘zbek etnomadaniyatidagi nikoh va oila munosabatlarining tabiiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-huquqiy, qadriyatli turmush tarzi bilan bog‘liq qonuniyatlarning rivojlanishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy turmushning farovonlashishiga qarab, nikoh marosimlari va taomillarining takomillashishi;
- o‘zbek milliy nikoh marosimlarining etnik xususiyatini saqlash, sog‘lomlik go‘zallikni zamonaviy unsurlar bilan boyib borishi va “markaziy urf-odatlarga tortilish” mexanizmining mavjudligidir.

O‘zbek nikoh marosimlaridagi bunday o‘zgarishlarni amalga oshiradigan faktorlar: zamonaviy turmush tarziga intilish va jamiyatdagi bo‘ladigan o‘zgarishlar, xususan, bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvidir. Bular milliy qadriyatlarning immanent belgilari bo‘lib, transformatsiyaga tortilishida markaziy etnomadaniy mohiyatini (oila muqaddasligi, erkak kishi qiz bolaga uylanishi, farzand tarbiyalashi) saqlagan holda zamonaviy qadriyatlar bilan boyib, keyingi ijtimoiy muhitga o‘sib o‘tadi.

Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra, nikohlanuvchi ikki qarama-qarshi jins sohiblari katta hayotga qadam qo‘yishdan maqsadlarini aniq bilishlari kerak. Shu bois, nikohdan o‘tayotgan erkak va ayol oila qurishga tayyor bo‘lishlari lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi kishilar farzandlarini sog‘lom, odobli, mard, irodali, mag‘rur, erkaklik mas’uliyatini xis qiladigan, mehnatsevar qilib tarbiyalashlari lozim. O‘g‘il bolalar ayollar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishlari, yigitlarning oilani moddiy jihatdan ta’minlashga mas’ulligi, oila xo‘jaligidagi og‘ir ishlarni bajara olishlari, xo‘jalik yuritishni bilishlari, oilaning qadriga yeta oladigan vafodor, bolajon, mehribon bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasi birinchi qismi bilan nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilanmoqda. Amalda esa ayollar uchun 17 yosh edi. *Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarni o‘zaro kelishuv yo‘li hal qilinishi, oilada bolalalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq-manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi[1].*

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharq mamlakatlarida: “Erlar ayollar uchun birinchi bo‘lishni, ayollar esa erkaklar uchun so‘nggisi bo‘lishni orzu qiladi”[2], degan gap bor. Buning ma’nosi bunday: er uylanmoqchi bo‘lgan qizning avval boshqa erkak bilan bo‘lmaganini orzu qiladi. Xotin esa, “Erim mengacha yurgan bo‘lsa yurgandir, endi yurmasin”, deb orzu qilishidir[3] . Bu tushuncha turli madaniyatlarda har xil qabul qilinadi.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Ayolni to‘rt narsa-mol-mulki, nasl-nasabi, go‘zalligi, din-diyonati uchun nikohlab oladilar. Sen diyonatlisini tanla, baraka topkur!”, deganlar. Xojagi Ahmad Kosoniy fikricha, agar adolat o‘rnatish qo‘lidan kelmasa va boshqasini tanlasa, qarshi amal qilgan bo‘ladi va o‘zini o‘z qo‘li bilan ulkan halokat girdobiga solgan bo‘ladi.

Mazkur sifatlar erkaklarga ham xos. Zero, qiz ham yigitning kelishganligi, boyligi, obro‘si, nasabiga aldanib qolmay, diyonatli yigitni tanlashi kerak. Diyonatli, solih yigit juft bo‘lish uchun eng muhim sifatlarga ega sanaladi. Diyonatli yigit xotinini har tomonlama himoya qiladi, u bilan totuv yashaydi, uncha-muncha injiqliklarini ko‘taradi. Eng muhimi, uni yaxshi ko‘rsa, e’zozlaydi. Bordi-yu yomon ko‘rsa, zulm qilmaydi. Agar ayol birga yashashni istamasa, uni qiynab ushlab turmaydi, yo‘lini ochib qo‘yadi.

Hazrat Rasul s.a.v. buyurgan ekan: “Xayr kum xayru kum la havla va ano xayru kum liahli”. Ya’ni: “Sizlarning eng yaxshilaring uldirkim, o‘z oilasiga azizroqdir. Va men o‘z oilamga hammadan azizroqman”. Imom G‘azzoliy “Nikoh odobi” asarida juft tanlashda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish lozimligini ta’kidlagan: Bo‘lg‘usi kelinning din-diyonatli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, haqiqiy soliha, diyonatli ayolda keyinchalik boshqa ibratli, yaxshi jihatlar ham jamuljam bo‘ladi. Yaxshi axloqli bo‘lishi ham muhim. Zero, mahmadona, shallaqi, qanoatsiz, buzuqi ayoldan solih farzand dunyoga kelishi dargumon. Shu bois bo‘lajak kuyovlarga minnatni xush ko‘radigan, shahvatparast, molparast, besabr, ko‘cha uchungina bezanadigan xulqi yomon qizlar bilan oila qurmaslik tavsiya etiladi.

Kelinning go‘zal, xushro‘y bo‘lishi ham zaruriy shartlardan sanaladi. Chunki muhabbatni alangalatuvchi omillardan biri chehra go‘zalligidir. Ko‘rimsiz ayol chehrasi ko‘ngilni tezda zada qilishi mumkin. Shu bilan birga, go‘zallik diyonat, xushxulqlikdan ayro bo‘lmasligi lozim. Diyonatsiz, badxulq ayolning chehra go‘zalligi buzuqlikka yetaklashi xavfi bor.

Ayolning nasl-nasabli bo‘lishi ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekchilikda yetti ajdod surishtirilishi bejiz emas. Zotan, tag-tugli, zoti asl, diyonatli qizlargina kelajakda iffatli, hayoli muslima ayol bo‘lib, solih, sog‘lom farzandlarni tarbiyalashga qodir bo‘ladi. Bu o‘rinda nasliy kasalliklarni surishtirish ham zarur.

Juftlikka tanlangan ayol yaqin qarindosh bo‘lmagani ma’qul. Chunki shahvat quvvati ham ehtirosli nazar, erkalashga uzviy bog‘liq. Zamonaviy tibbiyot ilmi ehtiroslar jo‘shqinligi ayolning

notanishligiga bog‘liq ekanini e’tirof etmoqda. Aniqlanishicha, yaqin qarindoshlardan qurilgan oilalardagi erkaklarda “ruhiy mijoz sustligi” dardi ancha ko‘p uchrar ekan.

Hozirda ko‘p odamlar kuyov va qiz tanlashda oqibatini o‘ylamay ish qilishmoqda. Ular imon-e’tiqodi, odob-axloqidan ko‘ra otasining mansabiga, boyligiga uchib farzandlari baxtiga zomin bo‘lishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 57-moddasida (Qarindoshlik) ko‘ra, bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o‘rtasidagi to‘g‘ri shajara bo‘yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya’ni tug‘ilish soni bilan belgilanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to‘g‘ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan-ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan-uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va ular o‘rtasida nikoh ta’qiqlanadi, deb belgilangan[4].

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlab, ularni sog‘lom, odobli, kattalarni hurmat qiladigan, iffatli, nomusli, hayo-iboli, mehnatsevar, uy-ro‘zg‘or ishlarini olib boradigan, mehmondo‘st uy bekasi darajasiga yetkazish baxtli turmushga kafolat bo‘la oladi. O‘zbekistonda nikohni, uning ijtimoiy mohiyati va maqsadiga ko‘ra hamda oilani mustahkamlash ehtiyojini, yosh avlodning axloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan holda tuzish zarurligi belgilandi. Yoshlarning nikohlanishi shartlari, talablari va qoidalari o‘zgarishiga hukumat qonunlari asosiy rol uynagan. Keyingi paytda nikohga qo‘yilgan shartlarning takomillashishi nikohning estetik jihatdan evolyusiyasi davom etayotganidan dalolat beradi.

Nikohdan o‘tish shartlarining asosiy omillari quyidagilardir:

birinchidan, nikohdan o‘tish oilani mustahkamlash, turmushni estetikalashtirish; ikkinchidan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish singari go‘zallikdan zavqlanish muhitini yaratish, uchinchidan, hammani (mahalla ko‘y, qarindosh-urug‘ oldida), oila oldida o‘z bokiraligini namoyon qilish va forig‘lanish; to‘rtinchidan, katta yoshdagilarning mas’ulligi hissi asosida nikohlanish; beshinchidan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini biron to‘sqinliksiz amalga oshirishni hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratdir. Shu bois, amaldagi oila qonunchiligini nikohning shakliga, ya’ni uni davlatning tegishli rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor beradi.

Xalqimizni boshqa xalqlarga o‘xshamaydigan milliy nikoh marosimlarini o‘tkazish bugungi kunda o‘zining dolzarbligi va muhim falsafiy ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, yoshlarimizning milliy ma’naviy merosimiz asosida kamolotga yetkazish va qadriyatlarni kelajak avlodlarga o‘z holicha yetkazib berish masalasi doimiy, uzluksiz, tadrijiy davom etib boraveradi.

O‘zbekiston o‘z taraqqiyoti yo‘lida o‘tmish ma’naviy merosga bo‘lgan munosabatlarni yangicha falsafiy dunyoqarash va estetik tafakkurni ham rivojlantirdi. Kishilik jamiyati tarixidan ma’lumki, dastlabki nikoh asosida barpo etilgan oilalar har tomonlama sog‘lom, butun va mustahkam bo‘lishi bilan birga, farzand tarbiyasida ham tinch va xotirjamlikni o‘zida ifodalagan. Shuning uchun ham, o‘zbek xalqi milliy nikoh marosimlarining ma’naviy kamolot darajasi o‘ziga xos axloqiy ideallarni va go‘zal estetik jihatlarni o‘zida ifodalab kelgan. Bunday marosim va urf-odatlar asta-sekin keng jamoatchilik tomonidan o‘rganilib, keyinchalik qonuniy nikoh marosimi ko‘rinishlariga aylanib ketgan.

XULOSA

Insonlar qalbiga yo‘l topish, ma’naviy tahdidlardan asrash va O‘zbekistonimiz taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Ma’naviy qadriyatlar har bir davlatning milliy o‘zligini anglashi jarayonida birinchi galdagi buyuk xazina sanaladi. Biron-bir davlat o‘z xalqi ongida ma’naviy Va estetik qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘zining yorqin kelajagini tasavvur eta olmaydi. Mana bir necha ming yildirki, o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi sharq xalqlari, qolaversa, butun dunyo ahli uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Ўзбекистон Республикасининг 30.04.1998 йилдаги Оила кодексининг 15 моддаси. 2019 йил 28 августдаги ЎРҚ-558-сонли Қонуни таҳририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.08.2019 й., 03/19/558/3662-сон)

2. Ҳамдамов Сардорбек Сафар ўғли. “Оммавий маданият”нинг тараққиёт ва миллий маънавиятга таҳдиди. Бухоро. 2012. https://uz.denemetr.com/.

3.Косоний Ахмад Хожагий. Асрор-у н- никох. Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. № 501/I ; - Б. 12.

4. Ўзбекистон Республикасининг 30.04.1998 йилдаги Оила кодексининг 15 моддаси. 2019 йил 28 августдаги ЎРҚ-558-сонли Қонуни таҳририда Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.08.2019 й., 03/19/558/3662-сон)

5.Komilov N. Komillik tariqati // Tafakkur-1998. 1-son.64-bet.

6.Anbiyo surasining bu oyatidagi so‘zlar Zakariyo tomonidan aytilgan bo‘lib, 7.Nuh payg‘ambar duosiga ma’nodosh bo‘lgani uchun keltirilgan.

8.Prezidentimizning 2018 yilning 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifidagi uchrashuv. – S.: 2018

9.Baxtli hayot sari. –T.:2017

10. Kosoniy Axmad Xojagiy. Asror-un-nikox. Qo‘lyozma. O‘z.R FAShI. № 501/I; - V 12.